

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

*Chirchiq shaxar politexnikumi biologiya fan o'qtuvchisi
Xolbutayeva Zuhraxon Raimjonovna*

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida zamonaviy metodlar yordamida biologiya fanini o'qitishning xususiyatlari tahlil qilib o'tildi. Biologiyani o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida didaktika bilan uzviy bog'liqdir. Biologiya o'qitish metodikasi maktab biologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lif va tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqadi. Biologiyani o'qitish metodikasi psixologiya bilan chambarchas bog'liq, chunki u bolalarning yosh xususiyatlariga asoslangan. Biologiya darslarida o'quvchilami to'laqonli o'quv-bilim jarayonining subyektiga aylantirish yo'llari qamrab olinishi darkor.

Kalit so'zlar: metod, uslub, o'qitish metodikasi, diktatik usullar, biologiya, botanika, zamonaviy metodlar, pedagogik yondashuv, psixologik holat.

ABSTRACT

In the course of this study, the features of teaching biology using modern methods were analyzed. The methodology of teaching biology as a pedagogical science is inextricably linked with didactics. Based on the unique features of school biology, the methodology of teaching biology develops theoretical and practical problems of the content, forms, methods and means of education and training based on the characteristics. It is necessary to highlight the ways of turning a student into a subject of a full-fledged educational process in biology lessons.

Keywords: method, style, teaching methodology, didactic methods, biology, botany, modern methods, pedagogical approach, psychological state.

KIRISH

Bugungi kunda rivojlanayotgan umumiy o'rta ta'lif tizimida biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ta'lif miqyosida dolzarb hisoblanadi. Biologiyaning rivojlanishi va uning yutuqlarini jamiyat hayotiga tatbiq etilmoqda. Binobarin, maktabda biologik ta'lifning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lif mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlarini, hodisa va voqealaming mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarini egallaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi,

nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlami amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim dargohlarida Biologiya fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini, ya'ni dunyo va inson, inson va olam o'rtasidagi munosabatlar haqidagi eng umumiylar qarashlar tizimi shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u shaxsning hayotiy dasturini, e'tiqodini, qiziqishlarini belgilaydi. Biologiyani o'qitish jarayonida tabiiy fanlarning hozirgi holatiga muvofiq ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish voqelikni yaxlit idrok etishning tabiiy ehtiyoji bilan bog'liq holda falsafiy muammolarga qiziqishi ortgan o'rta maktab o'quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega. Maktab biologiyasi boshqa fanlarga o'xshamagan holda, tabiat hodisalarga tizimli va tarixiy yondashuv birligini bilim kuchini ko'rsatishga yordam beradi. Biologiya o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarning dialekt tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda ularda organik dunyoning ilmiy manzarasi, hayotning tarixiyligi va uning harakat tizimidagi o'rni, qarama-qarshi bilish usullari bilan ochib beriladi. Biologiya maktab tizimidagi tabiatshunoslik siklining yetakchi fanlardan biridir, chunki u shaxsning shakllanishida va rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Baliq skeleti metodi. Bu metod muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi.

muammo muammo muammo muammo

Muammoni yechish Muammoni yechish Muammoni yechish

Strategiya:

Bir varoq oq qog`ozda (vatman yoki A-3 varag`i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg`alari).

Yuqoridagi «suyagiga» muammoni qo'yilishi, quyi qismida esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo'llari, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo'yiladi.

To'ldirilgan sxemaning taqdimoti.

Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta'lim berish uslubidan foydalanganda.
Afzalliklari

Ushbu sxema muammolarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi. Qiyinchiliklar Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Ikkinci metod –Akvarium.

Bunda 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo‘ylab o‘tiradilar. Ular – «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o‘tiradilar (yoki turadilar). Ular – «baliq ovchilari». Ichki doira a’zolari («baliqlar») o‘qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. “Baliq ovchilari” esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o‘quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo’shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. SHunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so’ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo‘ylab o‘tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanish doiralari.

Tabiiy va aniq fanlarni o‘rganish jarayonlarida qo’llaniladi.

Afzalliklari.

Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo’shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi. Tahliliy fikrlash, e’tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari.

Muammoni muhokama qilishda barcha o‘quvchilar faol ishtirok etish jarayonida bahs-munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. SHu bois o‘qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishiga yo’l bermaydigan uslublarni bilishi lozim.

Aniq nazorat bo‘lishini talab qiladi. Jarayon davomida ayrim o‘quvchilar undan chiqib qolishlari (jarayonda ishtirok etmasliklari) mumkin. O‘qituvchi muammoni muhokama qilishga barcha o‘quvchilarni jalb qilish usullarini o‘ylab chiqishi kerak.

Xulosada avvalo, interfaol metodning an’naviy metoddan farqli tomonlarini ko‘rib chiqish lozim.

Birinchidan, darsda barcha mavzular bo‘yicha talaba uchun qulay bo‘lgan dars turlari shaklida qo’llaniladi. Interfaolda ayrim mavzular bo‘yicha interfaol darsning qulay bo‘lgan turlari shaklida qo’llaniladi.

Ikkinchidan, Dars mavzusi bo‘yicha bilim, ko’nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlansa, faol metoddha dars mavzusi bo‘yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o’rgatiladi.

Uchinchidan, o'qituvchining vazifalari Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berishdan iborat bo'lsa, noan'anaviyga o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab beriladi.

To'rtinchidan, Darsga tayyorgarlikka dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash kabi talablar qo'yilsa, interfaol metodda Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlanadi.

O'quvchilar tayyorgarligi esa, oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish talablari berilsa, yangi metodda yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish talabi qo'yiladi.

Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.

Darsning modul va algoritmlaridan an'anaviyda har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalansa, noan'anaviyda har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.

Beshinchidan, bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari an'anaviyda muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa, noan'anaviyda muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil tarzda namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonidagi metodlar o'qituvchi faoliyatini belgilovchi holatdir. Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishslash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. 2003.- 66 b.Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU.

2. Rizoqulovna, B. M. T. (2021). BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 21-24.
3. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). Методика преподавания предмета “биология” в системе высшего медицинского образования. методологические и организационные подходы в психологии и педагогике, 8-11.